


QASHQADARYO VILOYATIINING
CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

(2019 yil yanvar-aprel)


Viloyat bo`yicha joriy yilning yanvar-aprel oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 3209,5 mlrd. so`mni tashkil etib, o`tgan yilning shu davriga nisbatan 101,7 % ga o`sdi. Shu jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi 99,2 mlrd.so`mni (o`sish sur`ati 45,6 %), kichik tadbirkorlik sub`ektlarining tovar aylanmasi 2873,5 mlrd. so`mni (o`sish sur`ati 105,6 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 236,8 mlrd. so`mni (o`sish sur`ati 108,9 %) tashkil etdi.

**Tumanlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi hajmi
(mlrd. so`m)**



2018 yilning shu davriga nisbatan viloyatning faqat Qarshi shahri tashqari barcha tumanlarida chakana savdo tovar aylanmasining o`sish sur`atlari kuzatilib, nisbatan yuqori o`sish sur`atlari Shaxrisabz (116,8%), Qarshi (107,9%), Qamashi (110,6%), G'uzor (106,6%) tumanlarida qayd etildi.

Chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari, (%)




Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan kamayish kuzatilib 45,6 % ni va 99,2 mlrd. so`mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 3,1 % ulushiga to`g`ri keladi.


Kichik tadbirkorlik sub`ektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko`ra, 2873,5 mlrd. so`mni tashkil etib, 2018 yilning yanvar-aprel oyiga nisbatan 97,8 % ga etdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 96,9 % ga teng.

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi, (%)

**2018 yil
yanvar-aprel**



**2019 yil
yanvar-aprel**



Yirik korxonalar
Kichik tadbirkorlik

**Chakana savdo aylanmasida
yirik korxonalar va kichik tadbirkorlikning ulushi, (%)**




Kichik tadbirkorlik
 Yirik korxonalar

Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik tadbirkorlik sub`ektlarining ulushi bo'yicha Koson (100,0%), Kitob (100,0 %), Mirishkor (99,9 %), Qarshi (99,9%) va G'uzor (99,0%) tumanlari yetakchililik qilmoqda.

Viloyat bo'yicha chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning ulushi 3,1 % ni tashkil etib, eng katta ulush Shaxrisabz tumanida (19,3 %), Qarshi shahrida (8,0 %) va Muborak (2,2%) tumanlarida kuzatilgan.

**Kichik tadbirkorlik va yirik korxonalarining
chakana savdo tovar aylanmasi hajmi**

	Yirik korxonalar (mlrd.so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da	Kichik tadbirkorlik (mlrd.so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da
Qasqadaryo viloyati	99,2	45,6	3110,3	98,6
G`uzor	1,2	112,6	125,5	101,3
Dehqonobod	0,2	6,4	162,5	96,5
Qamashi	10,0	2,8 M	239,6	100,0
Qarshi	0,6	113,0	129,1	99,6
Koson	0,1	3,1	319,2	96,9
Kitob	0,0	0,04	224,5	100,9
Mirishkor	0,2	134,7	149,5	101,7
Muborak	2,1	94,2	93,7	96,9
Nishon	0,3	88,6	129,0	99,0
Kasbi	0,5	16,8	138,9	95,4
Chiroqchi	0,8	103,3	285,7	98,0
Shaxrisabz	23,6	2 M	98,8	96,4
Yakkabog'	3,1	5,4 M	185,9	96,6
Qarshi sh	55,7	31,8	643,7	97,3
Shaxrisabz sh	0,9	17,8	184,8	97,5

**Shahar va tuman kichik tadbirkorlik sub`ektlarining viloyat chakana savdo tovar
aylanmasidagi ulushi, (%)**

2019 yil yanvar-aprel oyida chakana savdo tovar aylanmasi viloyat bo`yicha aholi jon boshiga 996,9 ming so`mni tashkil qilib, o`tgan yilning shu davriga nisbatan 99,7 % ni tashkil qildi.

Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi eng yuqori ko`rsatkichlar Qarshi shahri (2577,0 ming.so`m), Shaxrisabz shahri (1352,3 ming.so`m) va Mirishkor (1279,3 ming.so`m) tumanlari hissasiga to`g`ri keladi.

Shuningdek, aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi bo`yicha eng kam ko`rsatkichlar Qarshi (242,3 ming.so`m), Shaxrisabz (559,9 ming.so`m) va G'uzor (635,1 ming so`m) tumanlarida qayd etilgan. Ushbu ko`rsatkich shahar va tumanlar kesimida quyidagicha ko`rinish olgan:

Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi

	Ming. so`m	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da
Qasqadaryo viloyati	996,9	99,7
G'uzor	635,1	104,5
Dehqonobod	1129,1	100,7
Qamashi	940,3	108,1
Qarshi	535,1	105,3
Koson	1145,0	101,1
Kitob	864,6	102,2
Mirishkor	1279,3	100,0
Muborak	1126,9	102,7
Nishon	867,9	102,0
Kasbi	725,4	100,6
Chiroqchi	714,7	102,3
Shaxrisabz	559,9	114,7
Yakkabog'	731,3	105,0
Qarshi sh	2577,0	89,4
Shaxrisabz sh	1352,3	99,2

Jumladan, 2019 yilning yanvar-aprel oyi mobaynida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi 2,3 %ni tashkil etib, 74,5 mlrd. so`mga yetdi yoki o`tgan yilning mos davriga nisbatan 102,4 % o`sishga erishildi.


QASHQADARYO VILOYATINING ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

(2019 yil yanvar-aprel)

Joriy yilning yanvar-aprel oylarida viloyat bo`yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi 792,0 mlrd. so`mni tashkil qildi va 2018 yilning shu davriga nisbatan 102,9 %ga o`sdi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik tadbirdorlik sub`ektlariga to`g`ri kelib, mazkur hajm 2019 yil yanvar-aprel oyi yakunlariga ko`ra, 375,4 mlrd. so`mni tashkil etdi va o`tgan yilning shu davriga nisbatan 104,9 %ga o`sdi. Ushbu sektorning umumiyligi ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi esa 47,4 % ni tashkil qilmoqda.


Yirik va kichik korxonalarining ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi, (%)



Ulgurji savdo tovar aylanmasining tarkibida yirik korxonalarning ulushi 47,4 % ni tashkil etdi.

Shahar va tumanlar kesimida ulgurji savdo hajmi

	Jami (mlrd.so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da	Yirik korxonalar (mlrd.so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da	Kichik korxonalar (mlrd..so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da
Qasqadaryo viloyati	792,0	125,7	375,4	171,2	416,7	101,4
G'uzor	3,1	94	255,6	10,1	3,1	100,8
Dehqonobod	1,3	100,7	0,4	-	1,3	100,7
Qamashi	21,9	3,3 m	15,3	-	6,6	101,5
Qarshi	38,6	154	13,4	-	25,2	100,7
Koson	25,8	100,7	0,0	-	25,8	100,7
Kitob	25,3	101,1	0,0	-	25,3	101,1
Mirishkor	27,9	3,8 m	20,5	-	7,4	101,3
Muborak	23,1	171,5	19,0	2 m	4,0	100,6
Nishon	47,7	2 m	25,1	-	22,6	102,5
Kasbi	32,7	4,8 m	25,9	-	6,8	100,5
Chiroqchi	13,4	100,4	0,0	80,6	13,4	100,5
Shaxrisabz	5,4	97,5	0,1	26,6	5,4	101,9
Yakkabog'	11,9	101,9	0,1	-	11,8	101
Qarshi sh	483,3	112	15,3	123,1	227,7	101,7
Shaxrisabz sh	30,8	97,5	13,4	26,5	30,4	101,2

**Tumanlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasining
o`tgan yilga nisbatan o`zgarish sur`atlari, (%)**

Ulgurji tovar aylanmasida o`tgan yilning shu davriga nisbatan eng yuqori o'sish sur`atlari Kasbi (4,8 m%) va Mirishkor (3,8 m %) , Qamashi (3,3%), tumanlarida qayd etildi. Ulgurji tovar aylanmasida o`tgan yilning shu davriga nisbatan eng quiyi o'sish sur`atlari esa G'uzor (94,0%) va Shahrisabz shahar (97,5 %) , Shahrisabz (97,5%) tumanlarida qayd etildi.